

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrası professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlát Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar	421
M.A.Saparova , talaba	



XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH UCHUN EKONOMETRIK REGRESSION MODEL TUZISH

Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar shaklidagi chet el kapitalining milliy iqtisodiyotlarga jalb etilishi, iqtisodiy taraqqiyotga, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga va hattoki atrof-muhitga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Chet el kapitalini milliy iqtisodiyotga jalb etish esa bir qancha shart sharoitlarni talab etadi. Xorijiy investitsiyaning mamlakatga kirib kelishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Bu omillarni aniqlashga qaratilgan nazariy va amaliy tahlillar ham ko'p. Ushbu maqolada TTXI oqimiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga qaratilgan ekonometrik model keltiriladi.

Kalit so'zlar: To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya, Heteroskedastiklik, chiziqli regressiya, TTXI oqimining logarifmik qiymati, Savdo ochiqchiligi darajasi (tashqi savdo aylanmasining YalMdagi ulushi % da, Inson kapitali indeksi, Tabiiy kapital indeksi, Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), Institutsional tizim indeksi, Transport tizimi indeksi, institutsional tizim indeksi.

Abstract: The attraction of foreign capital in the form of direct foreign investment to national economies has an impact on economic development, macroeconomic indicators, and even the environment. Attracting foreign capital to the national economy requires a number of conditions. Several factors affect the inflow of foreign investment into the country. There are many theoretical and practical analyzes aimed at determining these factors. This article presents an econometric model aimed at determining the factors influencing the flow of TTXI.

Key words: Foreign direct investment, Heteroskedasticity, linear regression, logarithmic value of FDI flow, Trade openness level (share of foreign trade turnover in GDP in %), Human capital index, Natural capital index, Information and communication technologies (ICT), Institutional System Index, Transport System Index, Institutional System Index.

Аннотация: Привлечение иностранного капитала в виде прямых иностранных инвестиций в национальные экономики оказывает влияние на экономическое развитие, макроэкономические показатели и даже окружающую среду. Привлечение иностранного капитала в национальную экономику требует выполнения ряда условий. На приток иностранных инвестиций в страну влияют несколько факторов. Существует множество теоретических и практических анализов, направленных на определение этих факторов. В данной статье представлена эконометрическая модель, направленная на определение факторов, влияющих на поток ТТХИ.

Ключевые слова: Прямые иностранные инвестиции, Гетероскедастичность, линейная регрессия, логарифмическое значение потока ТТХИ, Уровень открытости торговли (доля внешнеторгового оборота в ВВП в %), Индекс человеческого капитала, Индекс природного капитала, Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), Институциональные. Системный индекс, Индекс транспортной системы, Индекс институциональной системы.

KIRISH

Jahon iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan bir vaqtda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnologik jihatdan yangilash masalasi muhim hisoblanadi. Bu esa uzoq muddatli davrda ham iqtisodiyotda barqaror rivojlanish imkoniyatini beradi.

Iqtisodiyotda shunday bir tushuncha borki, u iqtisodiyot nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biri, xo'jalik yuritish jarayonida barqaror o'sishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Bu tushunchani biz investitsiyalar deb ataymiz. Investitsiyalarning iqtisodiyotdagi asosiy rolini ikki xil ko'rinishda ko'rishimiz mumkin bo'lib, ular quyidagilar:

- ishlab chiqarishni yangidan tashkil qilish uchun qilinadigan investitsiyalar;
- mavjud ishlab chiqarishni yangilash, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish uchun qilinadigan investitsiyalar.



Umuman olganda, investitsiyalar tushunchasini bizda mavjud bo'lgan kapitalni ishlab chiqarishni yangidan yo'lga qo'yish yoki mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnologik jihatdan rivojlantirish uchun yo'naltirish sifatida tushunishimiz mumkin. Ko'pchilikda iste'mol va investitsiyalar o'rtasida ba'zi o'xshash fikrlar mavjud bo'lib, investitsiyalarni ham go'yoki xarajatlar sifatida talqin qilish holatlari uchraydi. Iste'mol va investitsiya xarajatlari o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, iste'mol uchun to'lovni biz bugun amalga oshiramiz va iste'mol jarayoni ham ayni vaqtda ro'y beradi. Investitsiya esa bizning kelajak iste'molimiz uchun bugun qiladigan to'lovimizdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu maqolada bir qancha iqtisodchi olimlarning izlanishlaridan, olib borilgan tadqiqotlaridan, nazariy va empirik tahlillaridan foydalanildi. Ekonometrik regression modelni tuzish va undagi tobe o'zgaruvchiga (to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarga) ta'sir qiluvchi mustaqil o'zgaruvchilarni (ta'sir qiluvchi omillarni) aniqlashda ham avvalgi tadqiqotlarga tayanildi. Ekonometrik regression modelni tuzish va undagi tobe o'zgaruvchiga (to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarga) ta'sir qiluvchi mustaqil o'zgaruvchilarni (ta'sir qiluvchi omillarni) aniqlashda ham avvalgi tadqiqotlarga tayanildi. Xususan, Neha Saini va Monica Singhania^[1] TTXI oqimiga ta'sir etuvchi omillar sifatida o'z regression modellarida bir qancha o'zgaruvchilarni jamlagan. Ular mustaqil o'zgaruvchilar sifatida yalpi ichki mahsulotning o'sish surati, ichki investitsiyalar, mamlakatdagi foiz stavkasi, texnologik o'zgarish indeksi, ishlab chiqarish samaradorligi indeksi, savdo ochiqligi, erkinlik indeksi va krisizislarni ifodalab beruvchi indikativ o'zgaruvchilardan foydalandi. Yana bir olim Khacho^[2] boshchiligidagi iqtisodchilar guruhi esa 32 ta rivojlangan davlatning 1982–2008-yillardagi panel ma'lumotlaridan foydalangan holda ekonometrik tahlil o'tkazdi. Ular esa mustaqil o'zgaruvchilar sifatida yalpi ichki mahsulotning o'sishi, savdo ochiqligi darajasi, mamlakatlardagi ish haqi darajasi, erkinlik indeksi kabi ko'rsatkichlardan foydalandi.

Hubert Janicki va Phanindra Wunnava^[3] o'z tahlillarida 8 ta Yevropa Ittifoqi davlatlarining 1997-yildagi ma'lumotlaridan foydalandi. Ular musaqil o'zgaruvchilar sifatida import hajmi, mamlakatlardagi ish haqi xarajatlari, yalpi ichki mahsulot hajmini oldi. Boshqa bir tadqiqotchi olim C. Ayanwu^[4] esa o'z tahlillarida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar sifatida o'zining ekonometrik regression modelida shahar aholisining soni, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot, savdo ochiqligi, moliyaviy rivojlanganlik indeksi, inflyatsiya darajasi, valyuta kursi, infrastruktura indeksi, hukumat xarajatlari, siyosiy huquqlar kabi ko'rsatkichlardan foydalandi. Ushbu bobda qo'llaniladigan regression model va undagi o'zgaruvchilar yuqorida tilga olingan ilmiy tadqiqotlardan va boshqa yana bir nechta olimlarning (P. C. Nguyen, T. B. Nguyen, D. Su, S. Christophe^[5], Omar Aziz, Anil Mishra^[6]) ilmiy tahlillaridan kelib chiqqan holda tanlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatimizga kirib keladigan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar shaklidagi chet el kapitaliga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga qaratilgan ekonometrik regression modelda faqatgina O'zbekistonning vaqtli qatorlari (time-series)dan iborat ma'lumotlaridan foydalanish regressiyaning aniq natijasini bermasligiga, aniq xulosalar chiqara olmasligimizga sabab bo'lishi mumkin. Chunki birgina O'zbekistonning ma'lumotlaridan foydalanish bizda mavjud bo'lgan o'rganishlar sonining kamaytiradi. Bu esa regressiyaning aniqlik darajasini past bo'lishiga olib keladi.

Shu sababli regressiya uchun Mustaqil Davlatlari Hamdo'stligining (MDH) 10 ta mamlakatining 2000–2021-yillardagi panel ma'lumotlaridan foydalanildi. Ushbu mamlakatlar O'zbekiston bilan siyosiy, iqtisodiy va institutsional tuzilishi, daromadlar darajasining bir biriga nisbatan yaqinligi, deyarli barchasi bir vaqtda mustaqillikka erishganligi, xalqaro tashkilotlar talqinida barchasi rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kirishi sababli tanlandi. Bu esa bizdagi ma'lum o'rganishlar sonining ko'payishiga va regressiyaning aniqlik darajasining ham ortishiga sabab bo'ladi. Mustaqil o'zgaruvchilarni tanlash jarayonida ham quyidagi bir nechta jihatlarga e'tibor berildi:

- mustaqil o'zgaruvchilarning nazariy jihatdan va mantiqan tobe o'zgaruvchiga bog'liqligi;
- avvalgi tadqiqotlarda mustaqil o'zgaruvchi sifatida foydalanilgan ko'rsatkichlarga;
- mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va moliyaviy holatiga;
- tanlanishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarning xalqaro tashkilotlar tomonidan to'liq holda e'lon qilinishiga;
- tanlanishi mumkin bo'lgan mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida o'zaro bog'liqlik bor yoki yo'qligiga, ekonometrik tahlilda uchraydigan multikollinearlik muammosining mavjud yoki mavjud emasligiga;
- tobe o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida uzoq muddatli bog'liqlik bor yoki yo'qligiga.

Yuqoridagi jihatlarni inobatga olgan holda, ekonometrik regression modelda tobe o'zgaruvchi sifatida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, mustaqil o'zgaruvchi sifatida esa aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot, savdo ochiqligi darajasi (tashqi savdo aylanmasining yalpi ichki mahsulotdagi foizdagi



ulushi), Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, inson kapitali indeksi, tabiiy resurslarni ifodalab beruvchi tabiiy kapital indeksi, institutsional tizim indeksi va transport tizimi indeksi tanlab olindi. Infrastruktura darajasini ifodalab beruvchi ko'rsatkich mavjud bo'lmaganligi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT, UNCTAD) transport indeksidan foydalanildi. Quyida ushbu o'zgaruvchilarni tavsiflab beruvchi jadval keltirilgan (2. 1-jadval).

Regressiyada foydalaniladigan o'zgaruvchilar tavsifiga qaraydigan bo'lsak, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning mutlaq qiymati emas, logarifmik qiymati olingan. Bu esa regressiyaning talqinida o'ziga xos qulaylik yaratib, ushbu o'zgaruvchilarning koeffitsiyentlariga qaragan holda, ularning foizlardagi o'zgarishlarini qiyinchiliksiz aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, logarifmik qiymatning olinishi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan Heteroskedastiklik muammosining kamayishiga ham sabab bo'ladi. Savdo ochiqqligi darajasini esa mamlakatlar tashqi savdo aylanmasining yalpi ichki mahsulotdagi foizlarda berilgan ulushini belgilaydi. Inson kapitali, Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, tabiiy kapital, institutsional tizimlar va transport kabi ko'rsatkichlarni ifodalab beruvchi indekslar esa BMTning (UN, UNCTAD) har yili e'lon qilinadigan indeksleri hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: O'zgaruvchilar tavsifi

O'zgaruvchi nomi	O'garuvchi tavsifi
InFDI	TTXI oqimining logarifmik qiymati
InGDPPC	Aholi jon boshiga YaIMning logarifmik qiymati
TRADE_OP	Savdo ochiqqligi darajasi (tashqi savdo aylanmasining YaIMdagi ulushi, (%))
HC	Inson kapitali indeksi
NC	Tabiiy kapital indeksi
ICT	Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) indeksi
INSTITUTIONS	Institutsional tizim indeksi
TRANSPORT	Transport tizimi indeksi

Ekonometrik regression tahlilni amalga oshirishdan avval barcha tadqiqotlarda bo'lgani kabi o'zgaruvchilarni tavsiflab beruvchi statistik jadvalni ko'zdan kechirish muhim hisoblanadi. Quyida keltirilgan tavsiflovchi statistika jadvaliga ko'ra (2. 2-jadval), regression tahlilda jami 220 ta o'rganishlar soni mavjud. Ya'ni bizning panel ma'lumotlarimizda 10 ta davlatning (10 ta penel) 22-yillik ma'lumotlari (22 ta vaqtli qatorlar) mavjud bo'lib, jami $10 \times 22 = 220$ ta o'rganishni hosil qiladi. Shuningdek, ushbu jadvalda o'zgaruvchilarning o'rtacha, minimum, maksimum qiymatlari hamda o'rtacha qiymatdan uzoqlashish darajasi (standard og'ish) ham berilgan. Shuningdek e'tibor berilishi mumkin bo'lgan yana bir jihat shundan iboratki bizda "uzun panel" ("long panel", yillar soni mamlakatlar sonidan ko'proq) ma'lumotlari mavjud bo'lib, bu ham model tanlashimizda ahamiyatga ega hisoblanadi.

2-jadval: Tavsiflovchi statistika

O'zgaruvchilar	O'rganishlar soni	O'rtacha qiymat	Standard og'ish	Minimum qiymat	Maksimum qiymat
InFDI	220	20,545	1,89	14,691	25,041
InGDPPC	220	7,774	1,08	4,921	9,679
TRADE_OP	220	85,988	31,843	1,6	175,4
HC	220	46,92	5,415	36,9	61,3
NC	220	60,106	8,074	45,7	79,4
ICT	220	9,48	4,962	3,1	24,4
INSTITUTIONS	220	36,461	8,104	20,2	51,2
TRANSPORT	220	13,15	1,726	9,6	16,6

Regressiyani amalga oshirishdan oldin qilinadigan testlardan (pre-estimation test) biri bu o'zgaruvchilarni multikollinearlikka tekshirish hisoblanadi. U esa mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida o'zaro bog'liqlik bor yoki yo'qligini tekshiradi. Multikollinearlik regression tahlilda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shunday muammoki, bunda mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib qolsa, regressiya natijalari qanchalik



yaxshi chiqmasin, noto'g'ri xulosa qilishga olib keladi. Multikollinearlik bor yoki yo'qligini tekshirishning bir necha yo'llari, turli testlar mavjud. Shulardan biri "variatsiya-inflyatsiya omili" ("variance inflation factor", VIF) hisoblanadi. Bu testda VIF koeffitsiyentiga ko'ra multikollinearlik muammosi bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Ushbu koeffitsiyent 10 yoki undan yuqori qiymatga ega bo'lsa, mustaqil o'zgaruvchilar orasida yuqori darajada korrelatsion bog'liqlik mavjud ekanligini bildiradi. Bu esa regressiya natijalariga salbiy ta'sir qiladi. 5 dan 10 gacha oraliqda bo'lsa, o'rta darajada korrelatsion bog'liqlik mavjudligini bildiradi. Odatda koeffitsiyentning 5 dan 10 gacha bo'lgan oraliqda bo'lishi ham regressiya natijalaridagi aniqlikni pasaytiradi. Ko'pgina xorijiy darsliklarga ko'ra, ushbu koeffitsiyentning 5 dan kichik qiymatida regressiya natijalariga o'ta salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan multikollinearlik mavjud emasligini bildiradi. O'zgaruvchilarning tanlanishida va multikollinearlik tekshirilganda VIF koeffitsiyentining 5 dan kichik bo'lishiga harakat qilindi.

Quyida keltirilgan 2. 3-jadvalda VIF koeffitsiyentlarini ko'rishimiz mumkin:

3-jadval: Variatsiya inflyatsiya omili

O'zgaruvchilar	VIF	1/VIF
ICT	3. 276	
HC	3,062	0,305
NC	2,379	0,327
lnGDPPC	2. 904	0,344
TRANSPORT	1,782	0,42
INSTITUTIONS	1,67	0,561
TRADE_OP	1,28	0,599
O'rtacha VIF	2. 336	

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, mustaqil o'zgaruvchilar orasida yuqori darajadagi korrelatsion bog'liqlik mavjud emas. Chunki har bir o'zgaruvchi uchun hisoblangan VIF koeffitsiyenti 5 dan kichik. Demak, tanlangan o'zgaruvchilarni regression modelimizda qo'llaydigan bo'lsak, jiddiy darajadagi multikollinearlik muammosiga duch kelmaymiz.

Regressiyadan oldin o'tkaziladigan yana bir testlardan biri bu o'zgaruvchilarni statsionarlikka tekshirish hisoblanadi. Ya'ni agar biz tanlagan o'zgaruvchilarda statsionarlik bo'lmasa, ularning chiziqli grafigida turli xil tebranishlar, har xil o'zgarishlar kuzatiladigan bo'lsa, bu ham regression tahlilimizning aniqlik darajasini pasayishiga sabab bo'ladi. Natijada regressiyada ahamiyatlilik darajasi (p-qiymatning 0,05 dan kichik bo'lishi) yuqori bo'lgan o'zgaruvchilar ham bizning noto'g'ri xulosa berishimizga olib keladi. Statsionarlikni tekshirish uchun o'tkaziladigan testlar odatda "birlik ildiz testi" ("unit root test") deb yuritiladi. Biz tanlagan ma'lumotlar panel ma'lumotlar bo'lganligi uchun o'zgaruvchilar orasida har bir panel bo'ylab bog'liqlik bo'lishi mumkin. Agarda har bir panel orasida o'zgaruvchilarda bog'liqlik (cross-sectional dependence) bo'lsa, u holda ikkinchi avlod birlik ildiz testlari ("second generation unit root test") qo'llaniladi. Aks holda, birinchi avlod birlik ildiz testlaridan ("first generation unit root test") foydalaniladi. Shuning uchun statsionarlikka tekshirishdan avval o'zgaruvchilarni har panel bo'ylab bog'liqlik bor yoki yo'qligini tekshirish muhim. Bu test natijalari o'z navbatida, ekonometrik regression modelimizni tanlashimiz uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

4-jadval: Har bir panel bo'ylab bog'liqlikni tekshiruvchi test

O'zgaruvchilar	CD-testi	p-qiymat
lnFDI	19,121	0,000
lnGDPPC	30,067	0,000
TRADE_OP	5,202	0,000
ICT	30,365	0,000
HC	20,741	0,000
NC	3,709	0,000
INSTITUTIONS	7,653	0,000
TRANSPORT	24,576	0,000

2. 4-jadval natijalariga ko'ra, p-qiymatning 0,05 dan kichik bo'lishi o'zgaruvchilarda har bir panel bo'ylab bog'liqlik borligini bildiradi. Demak, ular uchun ikkinchi avlod birlik ildiz testlaridan birini qo'llashimiz kerak. Ushbu test uchun Pesaran CADF ("Pesaran cross-section Augmented Dickey Fuller") birlik ildiz testi tanlandi.

5-jadval: Ikkichi avlod birlik ildiz testi, Pesaran CADF testi

O'zgaruvchilar	t-bar	p-qiymat
lnFDI	-3,414	0,000
lnGDPPC	-3,292	0,000
TRADE_OP	-2,245	0,588
ICT	-1,988	0,863
HC	-2,122	0,739
NC	-2,032	0,828
INSTITUTIONS	-2,779	0,050
TRANSPORT	-2,010	0,846

Yuqorida keltirilgan 2. 5-jadvalga ko'ra, p-qiymatning 0,05 dan kichik bo'lishi o'zgaruvchining statsionar ekanligini anglatadi. Natijaga ko'ra jami 5 ta o'zgaruvchida statsionarlik aniqlanmadi. Bunda TTXI, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning logarifmik qiymati va institutsional tizim indeksi statsionar bo'lsa, savdo ochiqlik darajasi, inson kapitali indeksi, Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, tabiiy kapital indeksi, transport indeksi statsionar emasligi ma'lum bo'ldi.

Regressiyada qo'llaniladigan o'zgaruvchilarning ba'zilarida statsionarlik aniqlanmagani uchun ularning regressiyada foydalanilishi tobe o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida uzoq muddatli bog'liqlik bor yoki yo'qligiga bog'liq.

Regressiyadan oldin o'tkazilishi kerak bo'lgan bir nechta testlardan so'ng, mustaqil o'zgaruvchilar orasida jiddiy darajadagi multikollinearlik muammosi yo'qligi va ba'zi o'zgaruvchilarning statsionar emasligi aniqlandi. Statsionar bo'lmagan o'zgaruvchilardan faqatgina ular bilan tobe o'zgaruvchi o'rtasida uzoq muddatli bog'liqlik mavjud bo'lsa foydalanishimiz maqsadga muvofiq. Uzoq muddatli bog'liqlik mavjudligini tekshirish uchun odatda kointegratsiya testlari o'tkaziladi. Shunday testlardan biri Kao kointegratsiya testi hisoblanadi. Ushbu test natijalari quyida keltirilgan (2. 6-jadval).

O'kazilgan Kao kointegratsiya testi natijalariga ko'ra, 5 xil koeffitsiyentning hammasida p-qiymat 0,05 dan kichik bo'lganligi uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi va unga ta'sir qiluvchi tanlab olingan omillar o'rtasida uzoq muddatli bog'liqlik mavjud.

6-jadval: Kao kointegratsiya testi

Statistika	p-qiymat
O'zgartirilgan Dickey-Fuller t	-6. 40360,0000
Dickey-Fuller t	-5. 33060,0000
Ko'paytirilgan Dickey-Fuller t	-4. 09160,0000
Moslashmagan o'zgartirilgan Dickey-Fuller t	-7. 40590,0000
Moslashgan Dickey-Fuller t	-5. 54550,0000

Endi ular orqali ekonometrik regression tahlilni amalga oshirishimiz mumkin. Regressiya tenglamasi esa quyidagicha bo'ladi:

$$\ln FDI_t = a + b_1 \ln GDPPC_t + b_2 \text{TRADE_OP}_t + b_3 \text{HC}_t + b_4 \text{NC}_t + b_5 \text{ICT}_t + b_6 \text{INSTITUTIONS}_t + b_7 \text{TRANSPORT}_t + c$$

Bunda, a – konstanta, c – standard xatolik, indeksdagi t – joriy davrni bildiradi.

Regressiya tenglamasi aniqlangandan so'ng, o'zgaruvchilar avtokorrelatsiya yaga tekshiriladi. Bu esa o'zgaruvchilar o'zining laglangan qiymati bilan bog'liqlikka ega yoki ega emasligini aniqlaydi. Avtokorrelatsiyaga tekshirishda Wooldridge testidan foydalanildi. O'tkazilgan Wooldridge testida Prob > F = 0,0117 ya'ni 0,05 dan kichik p-qiymatga ega bo'lganligi uchun, o'zgaruvchilar birinchi tartibli avtokorrelatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Ya'ni o'zgaruvchilarning joriy davrdagi qiymati o'tgan davrdagi qiymati bilan bog'liqlikka ega.

TTXI oqimiga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari aniqlandi. Unga ko'ra, ba'zi o'zgaruvchilar statsionar emasligi, multikollinearlik testiga ko'ra mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida o'zaro yuqori darajadagi bog'liqlik yo'qligi topildi. Kointegratsiya testi orqali statsionar bo'lmagan o'zgaruvchilar va TTXI o'rtasida uzoq muddatli bog'liqlik aniqlandi. Shuningdek, o'zgaruvchilarda har bir panel bo'ylab bog'liqlikni aniqlash uchun ham test o'tkazilganda p-qiymatlar 0,05 dan kichikligi uchun bog'liqlik mavjud degan xulosaga kelindi. Avtokorrelatsiya testiga ko'ra esa o'zgaruvchilarning o'zining laglangan qiymati bilan korrelatsiyasi topildi. Yuqorida keltirib



o'tilgan test natijalaridan, o'zgaruvchilarning, panel ma'lumotning xususiyatlaridan kelib chiqib, ekonometrik regression model uchun Prais-Winsten regression modeli tanlandi. Bu model "standard xatoliklari tuzatilgan panel" ("panel corrected standard error", PCSE) deb ham yuritiladi. Uning afzalligi shundan iboratki, bu model avtokorrelatsiya va panel bo'ylab yuzaga kelgan o'zgaruvchilardagi bog'liqlik muammolarini ham inobatga oladi. Shuningdek, regression modelda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan heteroskedastiklik muammosini ham inobatga oladi. Ushbu muammolarni inobatga olgan holda, ularni tuzatadi. Prais-Winsten regression modeli natijalari quyida keltirilgan (2. 7-jadval).

Regressiya natijalariga ko'ra, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qatoriga aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot, savdo ochiqlik darajasi, inson kapitali, institutsional tizim va transport infrastrukturasini kiradi. Tabiiy resurslarning ta'siri esa yuqori darajada ahamiyatga ega emas.

Yana bir e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan ko'rsatkich bu R-kvadrat koeffitsiyenti bo'lib, u biz tanlagan o'zgaruvchilar (ta'sir qiluvchi omillar) qanchalik darajada regressiyadagi tobe o'zgaruvchini izohlab bera olishini belgilaydi. R-kvadrat koeffitsiyentining 1 ga yaqinlashishi yoki 1 bo'lishi mustaqil o'zgaruvchilar tobe o'zgaruvchini yuqori darajada izohlab bera olishini anglatadi. Bu ko'rsatkich "moslik darajasining yuqoriligi" ("goodness of fit") deb ham ataladi.

7-jadval: Prais-Winsten regression modeli, standard xatoliklari tuzatilgan panel (PCSEs)

InFDI	Koeffitsiyent	Standard xatolik	t- qiymat	p- qiymat	[95% ishonch oralig'i]		Sig
lnGDPPC	1,647	0,079	20. 62	0,000	1,491	1,804	***
TRADE_OP	0,002	0,002	1. 29	0,006	−0,001	0,006	**
HC	0,124	0,017	7. 31	0,000	0,091	0,158	***
ICT	−0,084	0,017	−4. 83	0. 000	−0,118	−0,050	***
NC	−0,004	0,007	−0. 64	0,522	−0,019	0,009	
INSTITUTIONS	−0,072	0,012	−5. 71	0,000	−0,098	−0,047	***
TRANSPORT	−0,283	0,046	−6. 07	0,002	−0,374	−0,191	***
Konstanta	9,104	1,311	6. 94	0,000	6,534	11,674	***
Tobe o'zgaruvchining o'rtacha qiymati		20. 545	Tobe o'zgaruvchidan standard og'ish			1. 890	
R-kvadrat		0. 76	O'rganishlar soni			220	
Chi-kvadrat		1488. 10	Prob > chi2			0,000	
*** p<0,01, ** p<0,05, * p<0,1							

Natijalarga ko'ra, TTXI hajmiga mamlakatlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsuloti ijobiy ta'sir qiladi. Uning ahamiyatlilik darajasi ham yuqori (chunki p-qiymat = 0,000 < 0,05). Bunda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot miqdorining 1% ga o'sishi TTXI oqimining taxminan 1,6% ga o'sishiga olib keladi. Bu esa o'rganilayotgan mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda ham aholi daromadlarining o'sishi mamlakatga yanada ko'proq chet el kapitali kirib kelishini ta'minlaydi.

Savdo ochiqligi darajasi ham TTXI oqimiga ijobiy ta'sir qiladi va ahamiyatlilik darajasi ham yuqori (p-qiymat = 0,006 < 0,05). Izoh: logarifmik qiymatda berilmagan o'zgaruvchilar koeffitsiyenti 100 ga ko'paytirilgan holda talqin qilinadi. Ya'ni natijalarga ko'ra, savdo ochiqlik darajasining 1% ga o'sishi TTXI oqimining 0,2% o'sishiga olib keladi. O'rganilayotgan MDH mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston ham o'z tashqi iqtisodiy siyosatida qanchalik ochiq bo'lsa, xalqaro bozorda qanchalik faol qatnashsa, ishlab chiqarish omillari harakati, tovar va xizmatlar eksport-importi qanchalik ko'paysa, bu ham milliy iqtisodiyotga shuncha ko'p miqdorda xorij kapitalining kirib kelishiga sabab bo'ladi.

Xorijiy investorlarga investitsiya kiritadigan mamlakat aholisining ilmiy salohiyati, malakasi, ko'nikmasi, tajribasi kabi omillar ham muhim sanaladi. Buni regressiya natijalari ham ko'rsatib turibdi. Natijalarga ko'ra, inson kapitali indeksi TTXI oqimiga ijobiy ta'sir qilib yuqori darajada ahamiyatga ega (p-qiymat = 0,000 < 0,05). Bunda, inson kapitali indeksining 1 birlikka o'sishi TTXI oqimining 12,4% ga o'sishiga olib keladi. Bu esa ushbu mamlakatlar yanada ko'proq ta'lim, ilm-fan, tibbiyot, savdaxonlik darajasi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy dunyoqarashini oshirish kabi jihatlarga e'tibor qaratishi kerakligini anglatadi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) indeksini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu indexning ta'siri salbiy ekanligini ko'ramiz. Biroq bu ta'sir statistik jihatdan ahamiyatli (p-qiymat = 0,000 < 0,05). Demak, Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) indeksini 1 birlikka ortishi TTXI oqimining 8,4% ga kamayishiga olib keladi. Bu esa mamlakatda qanchalik AKT dan samarali foydalanish darajasi yuqori bo'lsa, har xil dasturlardan unumli foydalanilsa, dastur tuzuvchilarning soni oshirilsa, TTXI oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, albatta.



Tabiiy kapital indeksini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu indeksning ta'siri salbiy ekanligini ko'ramiz. Biroq bu ta'sir statistik jihatdan ahamiyatga ega emas ($p\text{-qiymat} = 0,522 > 0,05$). Demak, ushbu MDH mamlakatlariga kirib keluvchi chet el kapitali tabiiy resurslar ko'p bo'lgani uchun jalb qilinmasligi, aksincha, boshqa omillarga ko'proq e'tibor qaratish kerakligini bildiradi.

Institutsional tizim indeksi esa TTXI oqimiga salbiy ta'sir qilmoqda. Ammo bu ta'sir statistik jihatdan yuqori ahamiyatga ega ($p\text{-qiymat} = 0,000 < 0,05$). Ahamiyatlilik darajasi juda yuqori. Bunda institutsional tizim indeksining 1 birlikka o'sishi TTXI oqimining 7,2% gacha pasayishiga sabab bo'ladi. Institutsional tizimning yaxshilanishi, o'z navbatida, qonun ustuvorligini ta'minlashga, jinoyatlar jazosiz qolmasligiga, qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilmasligiga olib keladi. Ekologiya va atrof-muhit ustidan davlat nazorati kuchayadi. Bu esa asosan tabiiy resurslar eksport qiladigan mamlakatlarga kirib keluvchi xorijiy investitsiyalar hajmining pasayishiga sabab bo'lib qolishi ham mumkin. Shu o'rinda, ta'kidlash joizki, institutsional tizimning yaxshilanishi eksporti tabiiy resurslar emas, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan, ilm-fan sig'imi yuqori bo'lgan tovarlardan iborat bo'lgan mamlakatlarga chet el kapitalining ko'proq kirib kelishiga sabab bo'ladi.

Infrastrukturani ifodalab beruvchi transport indeksi koeffitsiyenti ham salbiy ekanligi va ahamiyatlilik darajasi yuqori ($p\text{-qiymat} = 0,000 < 0,05$) ekanligini ko'rishimiz mumkin. Natijalarga ko'ra, transport indeksining 1 birlikka o'sishi TTXI oqimining 28,3% ga kamayishiga sabab bo'ladi. Mantiqan olib qaraganda, transport tizimining yaxshilanishi TTXI oqimining kamayishiga sabab bo'lishini izohlash biroz qiyindek ko'rinadi. Biroq bunga bir nechta sabablar ham keltirish mumkin. Birinchidan, TTXI oqimi va transport tizimi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bevosita bog'liqlik emas, bilvosita bog'liqlik mavjud bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, transport tizimining yaxshilanishi mahalliy investorlarga ham qulaylik yaratib, xorijiy investorlarga nisbatan raqobatbardoshlik darajasini oshirishi mumkin. Uchinchidan, transport tizimining yaxshilanishi yuqori xarajatlarni talab etib, bu xarajatlarning qandaydir qismi bilvosita xorijiy investorlar zimmasiga ham tushishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy holda, o'rganilayotgan MDHning 10 ta mamlakati ichida O'zbekiston ham mavjudligi, ulardagi daromadlar darajasidagi yaqinlik, siyosiy- iqtisodiy, ijtimoiy tizimlarining o'xshashligidan kelib chiqib, mamlakatimiz uchun ham xulosalar berish mumkin. Bunda, milliy iqtisodiyotimiz uchun ham to'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar shaklidagi chet el kapitali kirib kelishiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Aholi daromadlari va savdo ochiqligidagi o'sish, inson kapitalining yaxshilanishi yanada ko'proq TTXI oqimini milliy iqtisodiyotga jalb etadigan bo'lsa, institutsional tizim va transport tizimidagi vaziyat xorij kapitali kirib kelishiga sezilarli salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Shuningdek, tabiiy resurslar chet el kapitali kirib kelishiga ta'sir etuvchi asosiy omil emasligini ham regressiya natijalari ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saini N., Singhania M. Determinans of FDI in developed and developing countries: a quantitative analysis using GMM // Journal of Economic Studies. Emerald, 2019. P. 348–382.
2. Khacho, Quyoorm A., Khan, Imran M. Determinans of FDI inflows to developing countries: a panel data analysis // Journal of International Economics. Kerala. 2012. P. 19.
3. Janicki H. P., Wunnava P. V. Determinans of foreign direct investment: empirical evidence from EU accession candidates // Middlebury. Routledge, 2014. P. 505–509.
4. Ayanwu J. Determinans of Foreign Direct Investment Inflows to Africa, 1980 – 2007 // Working Paper Series N°136. African Development Bank, Tunis. 2010. P. 32.
5. Nguyen P. C., Nguyen T. B., Su D. T., Christophe S. Determinans of foreign direct investment inflows: The role of economic policy uncertainty // Journal of International Economics, 2019. P. 159–172.
6. Aziz O., Mishra A. Determinans of FDI inflows to Arab economies // The Journal of International Trade and Economic Development, 2015. P. 325–356.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

